

**MUSIQAGA O'ZINI BAXSHIDA ETGAN USTOZ ABDUHOSHIM
ISMOILOVNING HAYOT YO'LI VA IJODI**

Yuldashev Jahongir

O'zbekiston davlat konservatoriysi

"Xalq cholg'ularida ijrochilik" ta'lif yo'naliishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ustozimiz O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilovning hayoti va ijod yo'llari keltirilgan.

Аннотация

В данной статье представлен жизненный и творческий путь нашего учителя, народного артиста Узбекистана Абдухошима Исмаилова.

Abstract

This article presents the life and creative ways of our teacher, People's Artist of Uzbekistan Abduhoshim Ismailov.

Kalit so'zlar: ijod, mehnat, musiqa, ritm, uslub.

Ключевые слова: творчество, работа, музыка, ритм, стиль.

Keywords: Creativity, work, music, rhythm, style.

O'zbek milliy musiqasi dunyo musiqasi ichida alohida ahamiyat kasb etadi va har qanday insonni o'ziga jalb qilishi bilan ajralib turadi. Men ham yoshligimdan ushbu san'atga qiziqishim bois, shu yo'nalishni tanladim va hozirda O'zbekiston davlat konservatoriyasining 3-bosqichida qashqar rubobi mutaxasisligi bo'yicha taxsil olyabman. O'zbek musiqa cholg'ularining har biri o'ziga xos tembri, o'ziga xos jozibasi va o'ziga hos nolasi va imkoniyati bilan ajralib turadi. Shulardan biri g'ijjak sanaladi. G'ijjak sozi ayniqsa nolasi va mungli ohangi kishini o'ziga jalb qilmasdan qolomay unda ijro etilgan kuylarni eshitganingizda maroq ila hordiq olasiz. Shu cholg'uni ma'romiga yetkazib ijro etadigan ustozlardan mohir sozanda va bastakor ustoz O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilovdir.

Abdulhoshim Ismoilov 1952-yil Farg'ona viloyatining Quva tumanida tavallud topganlar. Sozanda (g'ijjak) va bastakor. Ular musiqani tanlashlari tabiiy edi. Zero o'z paytida el og'ziga tushgan san'at darg'alari bilan yonma-yon ijod qilib hurmat qozongan bobolari bu yo'lda ularga sababchi edi. Volidalarining otasi ya'ni Abduhoshim Ismoilovning bobolari usta Juma-Rasulxo'ja degan inson bo'lganlar. Ustozlari Yunus Rajabiy, Hoji Abdulaziz juda ko'plab

musiqa san'atkorlari bilan ishlagan. Juma-Rasul ota 2-jahon urushi yillarida hukumat rahbarlari tomonidan yangi yo'lda maxsus tashkil etilgan ansambl tarkibida ham faoliyat yuritganlar. Tamaraxonim, Xalima Nosirova, Abdullajon Oxunovlar va juda ko'p ustozlar Turg'un Alimatovlar hattoki o'sha yerga yig'ilgan, o'sha yerda Abduhoshim Ismoilovning bobalari ham bo'lgan. Ularning bobolari shashmaqomni yoddan bilganlar shu sababli Abduhoshim Ismoilovning san'atga qiziqishlari baland bo'lgan. Ustoz 6-sinflaridan boshlab Quva tumanidagi madaniyat uyiga qatnay boshladilar. Ular dastlab rubob cholg'usida taxsil olganlar. U yerda amakilari Abdusalom Umarov ishlaganlar. O'zлari madaniyat uyiga olib borib yurganlar. Ustoz Abduhoshim Ismoilov yoshliklarida radio orqali "Azm daryo" degan kuyni eshitadilar. Skripkaning go'zal ijrosini eshitib bu cholg'uga mehrlari tushadi. Keyin ular bobolaridan rozilik olib skripkalarini olib keladilar va o'rganishni boshlaydilar. Keyin Farg'ona musiqa bilim yurtiga kirganlaridan so'ng g'ijjak yo'naliشida taxsil olishni boshlaydilar. Marhabo talantlariga kelib yaxshi natija ko'rsatadilar. Musiqa bilim yurtida Akram Sadirov degan xonanda bilan ilk marotaba oynaijahonda chiqadilar. Qo'shiqni va avj qismidan keyin pauza bo'lish kerak, usha payt ustoz bilmasdan improvizatsiya qilib chalib yuboradilar va bu improvizatsiya kuyga boshqacha joziba bergen. Ana o'shandan boshlab Abduxoshim Ismoilov mashhurlikga erisha boshlaydilar. Birdaniga vodiyya tanildilar. Ular hayoti davomida 3-marta o'z ixtiyorlaridan tashqari o'qib ishlab yurgan dargohdan ketishga majbur bo'ldilar. Lekin san'atga bo'lgan juda kuchli qiziqishlari sababli yana o'qislarni davom ettirdilar.

G'anijon Toshmatovning shunday so'zлari bor: Chimkentdan bir Sulotonxon degan tanburchi chiqgan. Ularni bizgacha 2 ta kuyi yetib kelgan. 1) Cho'li iroq, 2) Munojat. Ustoz Abduhoshim Ismoilov aynan mana shu kuylarni juda ma'romiga yetkazib ijro etadilar. Ayniqsa Munojat kuyini chalganlarida bu kuyni nolalari, kuyni dardi va o'zgacha uslubda ijrolari hammani lol goldirgan.

1972-yil Ikromjon Bo'ronovning xarbiy ansambilga keladilar. 1 yildan so'ng u ansamblga aka uka Vahobovlar, Xojiakbar Hamidovlar kirib keladi va usha ansamblni nomi chiqib ilk gastrol safarlariga boshlanadi. Taqdir ularni hayrli niyatlarini tufayli yoshliglaridan havasmand bo'lgan san'at darg'alariga ro'baro qila boshladi. Ularni Toshkentga kelishiga ham g'ijjak chalishidagi mahoratlari sabab bo'ldi.

Isroiljon Vahobov Abduhoshim Ismoilov studiyada zapis qilib repititsiya qilib turganlarida Yunus Rajabiy bilan Orif Alimaxsunov studiyani oldidan o'tib ketishayotganida, Abduhoshim Ismoilov cho'li iroqni chalayotgan bo'lganlar, bu ijrolarini eshitib, mehri tushib ularni Yunus Rajabiy Toshkenga taklif qiladilar. 1974-yil xarbiy xizmatni o'ta bo'lgach to'gri Yunus Rajabiyni oldilariga borganlar.

Jo'rabet Nabihev (Tojikiston xalq artisti) Abduhoshim Ismoilovda ancha muncha odamlarga nasib qilmagan hislat bor. San'at tilida improvizatsiya deyiladi. Men ko'p san'atkorlarda bu

narsani ko'rmaganman. Qo'shiq yoki kuyni chalib turgan payda agar ilhomni kelsa, unga kuy maql bo'lsa usha yerni o'zida bir chiroyli, yoqimli kuylar yaratib ketadi.

Ular 1974-yilda maqomchilar ansamblida sozanda sifatida ishlagan bo'lsalar, 1985-yili musiqa rahbari lavozimiga ko'tariladilar. 1987-yilga kelib ularni ansamblga badiiy rahbar etib tayinlashadi. Usha paytlarda yoshlikda diliga tugib qo'ygan yana bir orzularini amalga oshirish nasib etdi. Toshkenga kelganlarida Kamoliddin Rahmiov, Fattahxon Mamadaliyev, Komiljon Otaniyoz, Tavakkal Qodirov va boshqalarni ansamblida granplastinkaga yozishni boshlaganlar. Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi ansambliga Moskvani melodiya degan joyidan xabar kelgan, yozishni to'xtatinglar zapis 1 yarm milliondan oshib ketdi degan xabar keladi va ularga 15 ta kumush plastinka bilan oltin disk jo'natishadi.



Abduhoshim Ismoilov bastakor sifatida ilk bor taniqli aka uka Isroiljon va Ismoiljon Vahobovlarga musiqa yozib bergen bo'lsalar, keyinchalik esa musiqa asarlari Ikromjon Bo'ronovni ham qiziqtirib qo'ygan. Bastakor sifatida o'zlarining ashula va qo'shiqlari ("Bo'lmas", "Noz", "Erka bulbul", "Seno'zing", "O'zbekiston", "Toshkentim", "Yorimga ayting", "Uchrashuv", "Netay", "Tog' qizi" va boshqalar), cholg'u va raqs kuylari ("Holim so'rma", "Gullola", "To'yona", "Dil bayrami" va boshqalar) bilan shuhrat qozongan. Qator xorijiy mamlakatlarda o'z ijrochilik mahoratlarini namoyish etganlar. Maqom ijrochilarining 1-respublika tanlovi laureati (1983).

Yulduz Usmonova (O'zbekiston xalq artisti) Men bu insonni yuragi, musiqani qalban his qilishiga qoyil qolaman. Ayniqsa sokin musiqalarni juda ma'romiga yetkazib ijro etadi.

Shunday musiqalarni dunyo sahnalariga chiqishini hohlar edim, Abduhoshim Ismoilov ijrosida.

Jo'rabek Murodov (Tojikiston xalq artisiti) Abduhoshim Ismoilov qaysi davlatga borsa ham o'z san'ati bilan hammani lol qoldiradi. Shu bitta g'ijjak yoki skripka bilan qoyila qiladi. Chet davlatda skripka bo'yicha butun dunyoga mashhur Paganini bo'lsa, Abduhoshim Ismoilov o'zimizning Paganini, o'zbek Paganinisidir.

O'zbekiston xalq artisti (1990). Toshkent konservatoriyanining sharq musiqasi kafedrasini tugatgan (1989). O'zbekiston teleradiokompaniyasining maqom ansamblida sozanda (1974—1985), musiqa rahbari (1985-1987), badiiy rahbar (1987-1996) va "O'zbeknavo" konsert-gastrol birlashmasida sozanda (1997—1999). Ijro uslubiga noziklik va mayinlik, qochirim-nolalarni, rang-barang usullarni ustalik va mohirona ishlatish qobiliyatiga ega bo'lgan san'atkor.

Repertuaridan yirik xalq cholg'u kuylari ("Cho'li Iroq", "Nasrulloyi", "Navro'zi Ajam" va boshqalar), maqom yo'llari ("Chorgoh", "Segoh", "Dugoh") va boshqalar keng o'rinni olgan.



Xulosa musiqa insonni shunday shaydo qiladki, go'zal ohanglar orqali bemor odamlar ham shifo topadi. Go'zal musiqasiz insonni xursandchiligini tasavvur qilib bo'lmaydi. Abduhoshim Ismoilov nafaqat o'zlari, balki san'at ishqibozlari ham ularni g'ijjaksiz tasavvur qila olishmaydi. Ularni virtuo'z sozanda, dilga tushgan lirik qo'shiqlar bastakori, maqom san'atining jonkuyari, tinib tinchimas badiiy rahbar, ustoz sifatida tan olishadi. Ular erishgan O'zbekiston xalq artisti, Qoraqalpog'iston xalq artisti unvonlari, buyuk xizmatlari uchun ordeni ham aslida ana o'sha e'tirof ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "A" harfi
2. Gazeta.uz.